

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'RTA ASR XITOIY SAYYOHLARI VA ELCHILARINING ASARLARIDA MARKAZIY OSIYO TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR

Imomnazarov Qahramon O'tkirovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, katta o'qituvchi.

e-mail: kohihon@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0431-8801>

Annotatsiya.

XII–XIII asrlarda Xitoy sayyohlari va elchilarning qaydanomalarida Markaziy Osiyo tarixiga oid bo'lgan ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Mazkur tadqiqot dolzarb masalalaridan biri bo'lib mo'g'ullarning Markaziy Osiyoga harbiy yurishi jarayonidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Xususan, Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlariga oid bo'lgan manbalarni tahlili haqida so'z yuritilgan bo'lib, ularni o'rganilishi va yoritilishi masalalari ochiqqlangan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiy, qipchoq, qang'li, o'g'uz, naymanlar, kerayitlar turkiy-mo'g'ul, Xorazmshohlar, Dashti Qipchoq.

СВЕДЕНИЯ ПО ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ТРУДАХ СРЕДНЕВЕКОВЫХ КИТАЙСКИХ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ И ПОСЛОВ

Имомназаров Кахрамон Уткирович

Ташкентский государственный университет востоковедения, старший преподаватель.

Аннотация.

В XII–XIII веках в летописях китайских путешественников и послов встречается множество сведений об истории Центральной Азии. Данное исследование является одним из актуальных вопросов и содержит сведения о военном походе монголов в Центральную Азию. В частности, речь идет об анализе источников, относящихся к народам Китая и Центральной Азии, раскрываются вопросы их изучения и освещения.

Ключевые слова: Центральная Азия, кипчаки, кангли, огузы, найманы, кераиты, тюрко-монголы, хорезмшахи, Дашт-и Кипчак.

INFORMATION ON THE HISTORY OF CENTRAL ASIA IN THE WORKS OF MEDIEVAL CHINESE TRAVELERS AND ENVOYS

Imomnazarov Qahramon O'tkirovich

Tashkent State University of Oriental Studies, Senior Lecturer.

Abstract.

The records of Chinese travelers and ambassadors from the 12th–13th centuries contain a wealth of information related to the history of Central Asia. This study, which addresses a pressing topic, synthesizes information about the Mongol military campaign in Central Asia. In particular, it discusses the analysis of sources related to the peoples of China and Central Asia, and it reveals issues concerning their study and interpretation.

Keywords: Central Asia, Kipchak, Kangly, Oghuz, Naimans, Keraites, Turco-Mongol, Khwarazmshahs, Dasht-i Qipchaq.

Kirish. XIII–XIV asrlar mo'g'ullar tarixini tadqiq etishda xitoy tilida yaratilgan tarixiy manbalar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mo'g'ullar imperiyasi va Yuan sulolasi faoliyati bilan bog'liq ko'plab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar aynan Xitoy saroy tarixchilari tomonidan muntazam ravishda qayd etilgan. Shu sababli xitoy tilidagi tarixiy yilnomalar, sulolaviy tarixlar va rasmiy hujjatlar o'sha davr voqeliklarini tiklashda asosiy yozma manbalardan biri hisoblanadi. Biroq ushbu manbalardan foydalanishda Xitoy tarixnavislik maktabining o'ziga xos metodologik tamoyillarini hisobga olish zarur.

Xitoy tarixshunosligining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, unda Yuan sulolasi (1271–1368) butun Xitoy tarixining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Xitoy tarixiy an'anasiga ko'ra, Xubilayxon tomonidan asos solingan Yuan davlati mustaqil mo'g'ul davlati emas, balki Xitoy hududida hukmronlik qilgan navbatdagi sulola sifatida baholanadi. Shu sababli Yuan imperiyasi faoliyati Xitoy davlatining siyosiy taraqqiyot bosqichlaridan biri sifatida yoritiladi. Mazkur yondashuv natijasida mo'g'ullar tarixi ko'pincha Xitoy davlatchiligi tarixining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Natijada Xubilay, uning vorislari va Yuan davlatining siyosiy faoliyati Xitoy hukmdorlari va sulolalari tarixiga qo'shib o'rganiladi.

Bunday tarixiy konsepsiya XIII–XIV asrlarda shakllangan bo'lib, keyingi asrlarda ham Xitoy tarixnavisligining asosiy metodologik tamoyillaridan biri sifatida saqlanib qoldi. Ayniqsa, Min va Sin sulolalari davrida yaratilgan tarixiy

asarlarda ham Yuan sulolasiga nisbatan xuddi shunday yondashuv davom ettirildi. Natijada mo'g'ullar tarixiga oid ko'plab voqealar Xitoyning ichki siyosiy jarayonlari nuqtai nazaridan talqin qilindi. Bu esa ayrim tarixiy hodisalarning milliy emas, balki sinotsentrik (Xitoy markazli) konsepsiya asosida yoritilishiga olib keldi.

Shu bilan birga, Yuan sulolasi davrida tuzilgan rasmiy hujjatlar, farmonlar, yilnomalar, soliq daftarlari, saroy yozishmalari hamda sulolaviy tarixlar XIII–XIV asrlar mo'g'ullarining davlat boshqaruvi, harbiy tuzilishi, ma'muriy tizimi, diplomatik aloqalari va iqtisodiy hayoti haqida noyob ma'lumotlarni saqlab qolgan. Ayniqsa, «Yuan shi» («Yuan sulolasi tarixi»), «Yuanshi jishi benmo», «Tongjian gangmu» singari tarixiy yodgorliklar o'sha davr siyosiy voqealarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Xitoy tarixnavisligi vakillari Yuan sulolasini Xitoy imperatorlik sulolalarining qonuniy davomi sifatida e'tirof etganlari sababli, mo'g'ullar tarixiga oid ma'lumotlar ko'pincha imperiya manfaatlari nuqtai nazaridan bayon etiladi. Shu bois tarixiy hodisalarga berilgan siyosiy baholar ayrim hollarda xolislik tamoyilidan chekinishi mumkin. Masalan, mo'g'ullar hukmronligi davridagi ichki siyosiy nizolar, etnik munosabatlar yoki markaziy hokimiyat siyosati ko'pincha Xitoy imperatorlik mafkurasi asosida sharhlanadi.

Aynan shu jihat zamonaviy tarixshunoslikda xitoy tilidagi manbalarga tanqidiy yondashishni talab qiladi. Tadqiqotchilar ushbu manbalarni boshqa yozma yodgorliklar, jumladan, fors, arab, turkiy, mo'g'ul va yevropa manbalari bilan qiyosiy tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Chunki tarixiy voqelikning to'laqonli tiklanishi faqat turli sivilizatsiyalarga mansub manbalarni o'zaro solishtirish asosidagina amalga oshirilishi mumkin.

So'nggi o'n yilliklarda g'arb tarixshunosligi hamda xalqaro mo'g'ulshunoslik maktabining rivojlanishi natijasida xitoy tarixiy manbalariga yangicha metodologik yondashuv shakllandi. Zamonaviy xitoy olimlari ham g'arb va mo'g'ul manbalarini qiyosiy tahlil qilish orqali Yuan sulolasi tarixiga oid ayrim masalalarni qayta ko'rib chiqishga intilmoqdalar. Bu esa avvalgi sinotsentrik yondashuvning asta-sekin nisbatan xolis ilmiy qarashlar bilan boyib borayotganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, xitoy tilidagi manbalar XIII–XIV asrlar mo'g'ullar tarixini o'rganishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega bo'lsa-da, ulardan foydalanishda ularning yaratilish sharoiti, siyosiy-mafkuraviy yo'nalishi va tarixiy konsepsiyasi albatta hisobga olinishi lozim. Mazkur manbalarni tanqidiy tahlil qilish, boshqa tarixiy manbalar bilan qiyoslash hamda zamonaviy tarixshunoslik metodlari asosida baholash ilmiy tadqiqotlarning ishonchliligi va xolisligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli xitoy tilidagi tarixiy yodgorliklar XIII–XIV asrlar mo'g'ullar tarixini rekonstruksiya qilishda asosiy, ammo mutlaq haqiqatni aks ettiruvchi yagona manba sifatida emas, balki kompleks manbashunoslik tahlilining tarkibiy qismi sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar. Shimoldagi elchilik xotiralari. Mo'g'ullar tarixiga oid dastlabki manbalardan biri 北史记 “Běi shǐ jì” “Shimoldagi elchilik xotiralari”. Bu – Jin imperatorining Chingizxon huzuriga yuborgan elchiligi haqidagi qisqacha bayon. Shimol deganda mo'g'ullar saroyi nazarda tutilgan. Biroq Chingizxon o'sha vaqtda Mo'g'ulistonni tark etib, Markaziy Osiyoda urush olib borayotgan edi, shu sababli elchi amalda shimolga emas, g'arbga safar qilgan [10: 10–24].

“Shimoldagi elchilik xotiralari” asari Lyu Si tomonidan 1295-yilda Jin sulolasi davri haqida yozilgan “Guy szyan szi” to'plamga yodnoma sifatida kiritilgan. Biroq “Shimoldagi elchilik xotiralari”ning muallifi Lyu Si emas; u shunchaki 1222-yilda g'arbga qilgan safaridan qaytgan xitoy elchisining so'zlab berganlarini qayta hikoya qilgan, xolos. Bu imperator elchisining ismi Ugusun Chjunduan edi. Uning tarjimai holi “Jin tarixida”da keltirilgan bo'lib, unda elchining Chingizxon huzuriga borgani ham qisqacha zikr etilgan.

Vugusun Chjunduan 乌古孙仲端 (XII asr? – 1233) so'nggi Jin sulolasining vaziri va chjurchjen etnik guruhining vakili bo'lgan. Uning urug' nomi Vugusun, ikkinchi ismi Szichjen, asl ismi esa Buji bo'lib, keyinchalik Chjunduan deb o'zgartirilgan. U Vugusun Chjunduan nomi bilan ham mashhur edi. Chjunduan 1197-yilda imperatorlik imtihonlaridan o'tib, Szenshi (oliy imperatorlik imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan nomzod) bo'ldi. Jin sulolasi imperatori Syuanszun davrida u marosimlar vazirining o'rinbosari lavozimigacha ko'tarildi.

Vugusun o'z sayohatnomasida shunday deydi: “Meni Osmonosti mamlakati chegaralaridan 10 000 li g'arbga yubordilar. Yo'limda ko'rgan-kechirganlarim unutilib ketmasligi uchun hikoyamni yozib olinglar. 1220-yilning 12-oyida shimoliy chegarasini kesib o'tib, shimoli-g'arbiy yo'nalishda yo'lga tushdim. Asta-sekin yer yuzasi qiyaroq bo'la boshladi. Sya podsholigining shimoliy chegarasi bo'ylab 7–8 ming li yo'l bosib, bir toqqa yetib keldim. Uning sharqidagi barcha daryolar sharqqa, g'arbidagilari esa g'arbga oqadi, yer yuzi esa borgan sari tekislikka aylanib borar edi. Yana 4–5 ming li yo'l yurgach, havo juda isidi. Yo'limda yuzdan ortiq shaharni uchratdim, biroq ularning birortasi ham xitoycha nomlanmasdi. “Bu qanday mamlakat?” deb so'raganimda, menga bu yerda merkit, qirg'izlar, nayman, uyg'ur, qorluq va qanli qabilalar yashashi aytishdi.

Bir necha o'n ming li yo'l bosib, 回回 (huihui) mamlakatidagi Ili shahriga yetib keldim. U yerda ularning imperatorining qarorgohi joylashgan ekan. Dashi podsholigi yoki Buyuk Sidan ilgari musulmonlar mamlakatining o'rtasida joylashgan edi. Dashi lyao xalqidan edi. Liao imperatori uni aql-zakovati va so'zamolligi uchun yoqtirib, o'z malikasini unga nikohlab bergan edi. Imperator o'z qo'shini bilan g'arb mamlakatlariga yurish qilganida, Dashi avvaliga u bilan birga bo'ldi, biroq keyin oilasi bilan tog'lar ortiga qochib ketdi. Chegarada odamlarni to'plab, shimoli-g'arbga yo'l oldi. Yo'lda ular sersuv va o'tloqli joylarda dam olib, bir necha yildan so'ng qoyalaru qorlar tufayli o'tib bo'lmas Inshan tog'lariga yetib kelishdi. Aravalarini tashlab, bor budini tuyalarga ortib, musulmonlar mamlakatiga kelishdi va shu yerda o'z podsholigiga asos solishdi. Vaqt o'tib, Dashi qudratli hukmdorga aylandi. Aholi bu yerdan ko'chib ketdi, qolganlarning oz qismi esa xuyxelarining urf-odatlarini va kiyim-kechagini qabul qildi.

Musulmonlar juda katta bo'lib, g'arbga tomon ancha yoyilgan. 4- yoki 5-oyda bu yerdagi o'tlar bizning qishimizdagidek qovjirab qoladi. Tog'lar yilning eng issiq paytida ham qor bilan qoplangan bo'ladi. Quyosh chiqqanda havo isib, botishi bilan esa sovuq tushadi. 6-oyda odamlar qalin ko'rpa-to'shaklardan foydalanishga majbur bo'ladi. Bu

yerda yomg'ir faqat kuzda yog'adi va ayni o'sha paytda yer qiyg'os gullaydi, qishda esa tekisliklar xuddi bizning bahorimizdagidek yam-yashil bo'ladi.

Odamlarning qo'y junidek kigizlashib ketgan, qoradan sariq ranggacha tuslanadigan qalin soqollari bor. Ularning yuzlari deyarli to'liq soch bilan qoplangan, faqat burun va ko'zlarigina ko'rinib turadi. Ularning barcha urf-odatlarini g'oyatda g'alatidir.

Yana Hinduston ham bor, ular qora tanli va muloyim fe'l-atvorlidir. Ularning hukmdorlari o'zlariga Induning oddiy xalqidan xizmatkorlar tanlab, yuzlariga tamg'a bosishadi. Hamma odamlar shaharlarda yashaydi, qishloqlar esa yo'q. Uylarning tomi loydan suvalgan. Uylardagi barcha yog'och buyumlar o'ymakorlik bilan ishlangan. Deraza va idishlar uchun shaffof shishadan foydalanishadi. Bu mamlakat kumush, marvarid, paxta, kanop va hokazolarga juda boy. Ularning o'q-yoylari, aravalari, kiyim-kechaklari, sovutlari, nayzalari va idishlari g'ayrioddiy shakldadir. Ko'priklarni ulkan g'ishtlardan qurishadi. Qayiqdari mokiga o'xshaydi. Ularda besh xil dehqonchilik ekini va biznikiga o'xshash tut daraxtlari bor. Tuzni tog'lardan qazib olishadi. Uzunidan sharob tayyorlashadi. Ularda vazni 60 funt keladigan tarvuzlar bor. Olmalarining rangi juda chiroyli. Piyoz va qovunlari ham nihoyatda sifatli va xushbo'y. Tuyalarining o'rkachi bitta. Buqalariniki esa bo'ynida. Qo'ylarining dumbalari katta. Bu yerlarda sher, fil, tovu, buyvol va yovvoyi eshaklar uchraydi. To'rt oyoqli ilonlar ham bor. O'rgimchakka o'xshash bir xavfli hasharot bor: u odamni chaqsa, odam baqirib jon beradi. Bu joylarda bizga notanish bo'lgan ko'plab hayvonlar, qushlar, baliqlar, hasharotlar va boshqa jonivorlar mavjud.

Chjunduan 1221-yil dekabrda yurtiga qaytib keldi. Saroy uning elchilik xizmatini yuqori baholab, martabasini ikki pog'onaga ko'tardi. U mo'g'ullar huzuriga qilgan elchilik tajribasini aytib turdi va uni Xunyuandan (hozirgi Shansi viloyatining Xunyuanyuan uyezdi) bo'lgan Lyu Shu "Shimol elchisining qaydnomalari" nomli kitobga yozib oldi. Bu asar o'sha davrdagi Xitoy va G'arb munosabatlarini o'rganish uchun muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Yuan sulolasining hukmdorining harbiy yurishlari tavsifi. Hajman kichik Xitoy manbalari haqida so'z borganda, 皇元聖武亲征录 "Xuan Yuan shen'u sinchjen lu", ya'ni "Yuan sulolasining hukmdorining harbiy yurishlari tavsifi"ni ham tilga olmay o'tib bo'lmaydi. Bu – Chingizxonning xitoy tilidagi, kam o'rganilgan va tarixchilar tomonidan siyrak qo'llaniladigan qisqacha tarjimaiy holidir [7: 49].

Yevropa tillariga yagona tarjimasi 1872-yilda P. I. Kafarov tomonidan tayyorlangan. Ushbu hujjatni aniq sanalash mushkul, bu borada fikrlar turlicha: M. I. Golman uni Xubilay hukmronligi davriga oid deb hisoblagan [4: 69], zero aynan shu davrda Chingizxon shaxsiga sig'inish kulti jadal rivojlangan, bu esa o'z navbatida uning tarjimaiy holiga oid ma'lumotlarga e'tiborni kuchaytirgan. Palladiy esa matn ancha keyinroq yozilgan deb hisoblaydi, chunki unda qo'llangan Chingizxon va Yesugeyning vafotidan keyingi nomlari ularga Xubilayning vorislari davrida berilgan edi.

Rohib Chanchunning G'arbga sayohati haqidagi qaydlar. Mo'g'ul davlatining ilk tarixi bo'yicha navbatdagi axborot manbasi 長春真人西游记 "Chanchun chjenjen si yu szi"dir ("Rohib Chanchunning G'arbga sayohati haqidagi qaydlar"). Bular "Syuan'chjen" 全真 (Komil haqiqat) nomli dao maktabi boshlig'i Chanchunning (1148–1227) Chingizxon huzuriga safari chog'ida yozilgan sayohat qaydlaridir. Qaydlarning muallifi Chanchunning shogirdi Li Chjichan (1193–1278) bo'lib, u o'z ustozini bilan birga Markaziy Osiyodagi xon qarorgohigacha va u yerdan Shimoliy Xitoygacha bo'lgan ancha uzoq yo'lni bosib o'tgan [12: 138]. 1220-yilda Chingizxon mangulikka erishish sirini bilib olish istagida mashhur daochiyni o'z huzuriga chorlagan. Sayohat to'rt yil davom etgan, chunki Mo'g'ulistonga emas, balki qo'shinlar ketidan Turkistonga, Hindiston chegaralariga qadar borishga to'g'ri kelgan. Bular daosizmning Komil haqiqat maktabi rahbari Chanchunning (1148–1227) Chingizxon huzuriga qilgan safari chog'ida yozilgan sayohat qaydlaridir. Eslatmalar muallifi Chanchunning shogirdi Li Chjichan (1193–1278) bo'lib, u o'z ustozini bilan birga O'rta Osiyodagi xon qarorgohiga qadar va Shimoliy Xitoyga qaytib kelguncha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tgan. 1220-yilda Chingizxon boqiylikka erishish sirini bilish uchun mashhur daoni huzuriga chaqirtiradi.

Li Chjichan to'rt yil mobaynida sayohat kundaligini yuritgan va 1228-yilda o'z qaydlarini batamom tahrirdan chiqargan. Uning tarjimaiy holiga kelsak, 1227-yilda, Chanchun vafotidan so'ng, Komil haqiqat maktabi arxivi qo'riqchisi bo'lgani, buyuk xon O'qtoy bilan vorisni tarbiyalash masalasida bir necha bor suhbatlashgani va 1238-yilda ushbu maktabga rahbarlik qilgani ma'lum.

Manba "Dao szan" (道藏) deb nomlangan 28 jildlik kanonik daos asarlari to'plamiga kiritilgan matnga borib taqaluvchi ikki tahrirda saqlanib qolgan. Bu ikki variant o'rtasidagi tafovutlar ahamiyatsiz bo'lib, bu holat "har ikki tahrirni solishtirib, asl matnni osonlik bilan aniqlash"ga imkon beradi. Asarning ilk xitoycha nashri 1848-yilga to'g'ri keladi. Keyinchalik ko'plab xitoylik tadqiqotchilar ushbu asarga o'z qo'shimchalari va izohlarini (Din Syanning geografik tadqiqoti, Van Goveyning sharhlari) yozganlar [7: 177]. Ushbu manba 1866-yili Palladiy tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Uning ko'plab tarjimalari doimo mumtoz tadqiqotlarining haqiqiy majmuasi sanalgan keng qamrovli va batafsil sharhlar bilan ajralib turgan.

"Rohib Chanchunning G'arbga sayohati haqidagi qaydlar" o'rta asrlar Mo'g'ulistonining tarixi, tarixiy geografiyasi va etnografiyasi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi. Asarda Markaziy Osiyoliklarning turmush tarzi, an'anaviy urf-odatlarini, sayohatchilar bosib o'tgan o'lkalarining tabiati va iqlimi to'g'risida ishonchli ma'lumotlar ham mavjud.

Mo'g'ul-tatarlarning to'liq tavsifi. XIII asrni o'rganish uchun ahamiyatini yuqori baholash mushkul bo'lgan Xitoy asarlarini alohida guruhga ajratish lozim. Ulardan biri — 蒙鞑備錄 «Menda beylu» (Mo'g'ul-tatarlarning to'liq tavsifi) — bu davr mo'g'ullarining eng qadimgi tavsifi hisoblanadi. Ushbu asar tufayli, masalan, «Yuan shi» 元史 («Yuan tarixi»)dagi siyosiy arboblarning tarjimaiy holi yoki boshqaruv tizimining tuzilishiga oid ma'lumotlarga aniqlik kiritish imkoniyati mavjud. Matn quyidagi bo'limlarga bo'lingan: «Davlatning barpo etilishi», «Tatar hukmdorining yuksalishi», «Sulola va hukmronlik yillarining nomlanishi», «Knyazlar va shahzodalar», «Sarkardalar va xizmat ko'rsatgan amaldorlar», «Ishonchli vazirlar», «Harbiy ish», «Yilqichilik», «Oziq-ovqat», «Harbiy yurishlar», «Mansablar tizimi», «Urf-odatlar va

axloq», «Harbiy anjomlar va qurol-yarog'», «Elchilar», «Qurbonliklar», «Ayollar», «Bazmlar, raqslar va musiqa» [9: 45–84]. Bularning barchasi birgalikda mo'g'ullar hayotining u yoki bu jihatiga qisqa, ammo mazmunli tavsif beradi. Asarning yozilgan sanasi shubha uyg'otmaydi, chunki bu matnning o'zida 1221-yil deb aniq ko'rsatilgan.

Uzoq vaqt davomida matn muallifligi noto'g'ri aniqlanib kelingan. XIV asrda qadimgi va o'rta asr yozuvchilari asarlaridan iborat «Sho fu» 说郛 («Shahar atrofi hikoyalari») to'plamining tuzuvchisi Tao Szun'i 陶宗儀 qo'lidagi muallifi ko'rsatilmagan nusxaga asoslanib, asarni Men Xun 孟珙 qalamiga mansub deb hisoblagan.

Birinchi shaxs tilidan yozilgan matnda muallifning «Xun» ismi bir necha bor tilga olingani sababli, olim buni o'sha davrda Sun sulolasiga xizmat qilgan va harbiy harakatlarda faol ishtirok etgan mashhur generalning ismi deb bilgan. U avvaliga mo'g'ullar bilan ittifoqda chjurchjenlarga qarshi, so'ngra mustaqil ravishda o'zining sobiq ittifoqchilariga qarshi kurashgan edi. Bu talqin Yevropa va Rossiya XX asr boshlarigacha qabul qilingan. B. Y. Vladimirtsov, V. P. Vasilyev, V. V. Bartold kabi yirik sharqshunoslar ham shu fikrga qo'shilganlar [1: 84].

Natijalar. 1926-yilda atoqli xitoy olimi Van Govey 王国维 bu farazni birinchi bo'lib shubha ostiga oladi. «Sun shi» 宋史 («Sun tarixi») asarida bayon etilgan Men Xun tarjimai holida, 1221-yilda mo'g'ullarga elchilik yuborilgani haqida bir og'iz ham so'z aytilmagan, vaholanki, agar shunday bo'lganda, bu haqda sukut saqlash g'alati bo'lardi. Ayni paytda, XIII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan yozuvchi va shoir Chjou Mining 周密 asarlari yoki o'sha «Sun shi» kabi bir nechta manbalarda, 1221-yili chegara qo'shinlari qo'mondoni Xebeydagi mo'g'ullar huzuriga amaldor Chjao Xunni 趙珙 yuborgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud [9: 20–22]. Elchilik sanasi va elchining ismi (Xun) «Menda beylu» mazmuniga mos keladi va shunga asoslanib, Van Govey muhokama qilinayotgan asarning muallifi aynan Chjao Xun degan xulosaga keladi. Uning bu nuqtayi nazarini P. Pellio, N. S. Munkuyev kabi XX asr sharqshunoslarining aksariyati qabul qilgan. Bugungi kunda Chjao Xunning muallifligi shubha tug'dirmaydi.

«Mo'g'ul-tatarlarning to'liq tavsifi» yaratilganidan ko'p o'tmay, ko'plab olimlar va to'plamlar tuzuvchilarining diqqat markaziga tushadi. Asar yuqorida tilga olingan «Sho fu» dan tashqari, Min sulolasi davriga oid (yaratilishining aniq sanalari noma'lum) «Liday syaoshi» 历代小史 («O'tgan davrlar tarixiy hikoyalari») to'plamiga hamda XVI asr o'rtalarida tuzilgan «Gutszin shoxay» 古今说海 («Qadimgi va zamonaviy hikmatlar majmuasi») to'plamiga kiritilgan — akademik V. P. Vasilyev o'z tarjimasini aynan shu to'plamdagi matn asosida tayyorlagan [9: 24]. Biroq turli nusxalarni solishtirish chog'ida ularning barchasi «Sho fu» ga borib taqalishi aniqlandi. Asar yozilgan davrga oid qo'lyozmalar saqlanib qolmagan.

«Mo'g'ul-tatarlarning to'liq tavsifi» asarining 1975-yilda nashr etilgan ikkinchi, ancha zamonaviy tarjimasining paydo bo'lishi uchun aynan N. S. Munkuyevdan minnatdormiz. Bu tarjimada N. S. Munkuyev o'z vaqtida V. P. Vasilyev yo'l qo'ygan barcha noaniqliklarni tuzatishga harakat qilgan. Bundan tashqari, u tarjimini juda batafsil filologik va tarixiy sharhlar bilan boyitgan. M. I. Golman «Mo'g'ul-tatarlarning to'liq tavsifi» asari boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinmagan. Nemis tarjimonlari Peter Olbricht va Elisabeth Pinksning ishlaridan bexabar bo'lgan. Ular Erich Haenisch umumiy tahriri ostida Chjao Xunning asarini sharhlar bilan ta'minlangan yuqori sifatli tarjimasini tayyorlab, 1980-yilda nashr ettirishgan edi [12: 84].

«Mo'g'ul-tatarlarning to'liq tavsifi» asariga bo'lgan qiziqish shundan iboratki, ushbu yo'lnomada mo'g'ul xalqi hayotining barcha jabhalari haqida, garchi qisqa va umumiy tarzda bo'lsa-da, ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlari, toponimik nomlar, u yerda istiqomat qiluvchi xalqlar — qora tatarlar, oq tatarlar, naymanlar, qipchoqlar, uyg'urlar haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Xulosa. Shunday qilib, xitoy tilida mo'g'ullar tarixining muhim bir davrini – mo'g'ullarning etnik tarixi, geografik joylashuviga oid qimmatli tarixiy manbalar mavjud. Ular tadqiqotchiga mo'g'ul xalqi tarixi bo'yicha ham keng material taqdim etadi, o'sha davrdagi fors va arab mualliflarining asarlarida mo'g'ullar haqida keltirilgan ma'lumotlarga aniqlik kiritadi va ularni to'ldiradi. Bu manbalar nafaqat o'z xususiyati, balki mazmuni jihatidan ham mo'g'ullarning ilk tarixi yoki imperiyaning g'arbiy qismlarida sodir bo'lgan voqealarnigina batafsil yoritgan fors va arab materiallaridan sezilarli darajada farq qiladi. Aynan Mo'g'ulistonning o'zi hamda bosib olingan hududlarda XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rnatgan hukmronligi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni faqat xitoy tilidagi materiallardagina topamiz. Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, mo'g'ullar va Yuan sulolasi davridagi Mo'g'ul imperiyasi etnik holati haqidagi asosiy xitoy yozma manbalariga tavsif berish zarur.

XIII–XIV asrlarga oid manbalarining aksariyati hozirgacha tanqidiy matn yoki tarjima sifatida nashr etilgan. Ulardagi ma'lumotlardan asosan Markaziy Osiyoning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy tarixini yoritishda foydalanilgan. Manbalardagi etnik masalalarga oid ma'lumotlar aniq va izchil bo'lmaganligi uchun tadqiqotlarga kam jalb etilgan.

Yuqorida XIII–XIV asrlarda Markaziy Osiyodagi etnik masalalar aks etgan xitoy manbalari mavzu doirasida ilmiy tahlil qilindi. Shunga ko'ra, manbalarda keltirilgan etnik ma'lumotlar ko'lam jihatidan turlicha, deyish mumkin. Xususan, XIII asr boshlari mo'g'ul istilosi davri yoritilgan manbalarda mo'g'ullarning etnik ma'lumotlari shu davrga oid xitoy manbalariga va keyingi davrlar yoritilgan mo'g'ul manbalariga qaraganda ancha kam.

Mo'g'ullar bosqini va Chig'atoy ulusining XIII asr boshlari davriga oid xitoy manbalari («Shimoliy davlatlarga elchilik munosabatlari», «Qora tatarlar solnomasi» va b.) etnik ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В. В. Сочинения: в 9 т. Т. 1: Туркестан в эпоху монгольского нашествия / вступ. ст. И. П. Петрушевского. – Москва: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 446–530.
2. Васильев В. П. Записка о монголо-татарах («Мэнда бэйлу») // Труды Восточного отдела Русского археологического общества. – Ч. 4. – Санкт-Петербург, 1857. – С. 216–235.
3. Владимирцов Б. Я. Работы по истории и этнографии монгольских народов // Классики отечественного

- востоковедения / отв. ред. С. Л. Тихвинский. – Москва, 2002. – С. 144.
4. Гольман М. И. Изучение истории Монголии на Западе. – С. 67–70.
5. Кафаров П. И. и его вклад в отечественное востоковедение: материалы конференции. – Ч. 1–3. – Москва, 1979.
6. Мункуев Н. Ц. Китайский источник о первых монгольских ханах. – Москва: Наука, 1965. – С. 138.
7. Мэнда бэйлу («Полное описание монголо-татар») / пер. с китайского, введение, комментарий и приложения Н. Ц. Мункуева. – Москва, 1975. – 275 с.
8. Meng-Ta Pei-Lu und Hei-Ta Shih-Lüeh. Chinesische Gesandtenberichte über die Frühen Mongolen 1221 und 1237 / übers. und komment. von P. Olbricht, E. Pinks. – Wiesbaden, 1980. – P. 84.
9. Скачков П. Е. Очерки истории русского китаеведения. – Москва: Изд-во АН СССР, 1977. – С. 177.
10. Старинное китайское сказание о Чингис-хане / пер., коммент. П. И. Кафарова // Восточный сборник. – Т. 1. – Санкт-Петербург, 1877. – С. 149–295.
11. Бретшнейдер Э. Азия и Европа в эпоху средневековья: сравнительные исследования источников по географии и истории Центральной и Западной Азии XIII–XVII веков. – Санкт-Петербург: Своё издательство, 2018. – С. 10.
12. Jin Tarixi (Jin Shi). – 124-jild, 62-jild: Liezhuan № 62. Zhongyi.